

HARBIY XIZMATCHILAR MAQOMI TUSHUNCHASINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI

A.A. Tursunboyev

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20842994>

Annotatsiya. Maqolada harbiy xizmatchilar maqomining ilmiy-nazariy jihatlari tahlil qilinib, ularning huquqlari, majburiyatlari hamda davlat mudofaasi va xavfsizligini ta'minlash, maqsadida joriy etilgan taqiq va cheklovlar tizimi batafsil yoritilgan. Shuningdek, maqolada harbiy xizmatchilar maqomining ko'rinishlari, huquqlarni cheklashning asosiy tamoyillari, harbiy xizmatni davlat fuqarolik xizmati bilan qiyoslagan holda, harbiy intizom, huquqiy javobgarlik hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Harbiy xizmatchilar maqomi, huquq va majburiyatlar, taqiqlar va cheklovlar, harbiy xizmat, huquqiy javobgarlik, harbiy intizom, davlat xavfsizligi.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОНЯТИЯ СТАТУС ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Аннотация. В статье анализируются научно-теоретические аспекты статуса военнослужащих, подробно освещаются их права, обязанности, а также система запретов и ограничений, введенных в целях обеспечения обороны и безопасности государства. В статье также раскрываются проявления статуса военнослужащих, основные принципы ограничения прав, военная дисциплина, правовая ответственность и их особенности, сравнивая военную службу с государственной гражданской службой.

Ключевые слова: статус военнослужащих, права и обязанности, запреты и ограничения, военная служба, правовая ответственность, воинская дисциплина, государственная безопасность.

A SCIENTIFIC AND THEORETICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF THE STATUS OF MILITARY PERSONNEL

Annotation. The article analyzes the scientific and theoretical aspects of the status of military personnel, detailing their rights, duties, and the system of prohibitions and restrictions introduced to ensure state defense and security. The article also reveals the manifestations of the status of military personnel, the main principles of limiting rights, comparing military service with state civil service, military discipline, legal responsibility, and their specific characteristics.

Keywords: Status of military personnel, rights and obligations, prohibitions and restrictions, military service, legal responsibility, military discipline, state security.

O'zbekiston Respublikasida harbiy xizmat bir qator normativ huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Ushbu qonunlar bilan harbiy xizmatchilarning maqomi belgilab berilgan.

Bir qator olimlar tomonidan "maqom" hamda "holat" tushunchalari bir biridan farqlanishi haqida fikr bildirib o'tgan. Masalan, V.V.Baranenkovning fikricha ushbu terminlarni o'zaro qiyosiy tahlil qilish orqali ular o'rtasidagi farqlarni ko'rish mumkin. "Maqom" tushunchasi ko'p hollarda "maqomga ega bo'lish", "maqomdan mahrum qilish", "maqomni tan olish" kabi so'zlar bilan birgalikda qo'llaniladi. Bundan kelib chiqib "maqom" — aniq belgilangan, muayyan shaxs yoki biror narsa tomonidan belgilangan huquqiy holatning rivojlanish darajasi ekanligi ma'lum bo'ladi[1].

Harbiy xizmatchilarning maqomi bu ularning davlat tomonidan kafolatlangan huquqlari va erkinliklari, shuningdek qonun hujjatlari bilan belgilab berilgan majburiyatlari va burchlari to'plamidan iborat[2].

Bir qator olimlarning fikriga ko'ra, harbiy xizmatchilarning maqomi ularning huquqlari, burchlari va majburiyatlari shuningdek, harbiy xizmat bilan bog'liq taqiqlar va cheklovlar hamda xizmatdan bo'shatilgandan keyingi taqiq va cheklovlarni o'z ichiga oladi.

A.V.Kudashkinning fikricha, "cheklovlar faqat qonun bilan belgilangan bo'lishi lozim"[3]. Masalan, "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonun bilan "...umumiy harbiy majburiyat O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yoki vaqtincha yashayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga tatbiq etilmasligi" to'g'risidagi cheklov kiritilgan[4].

V.V.Kozlovning fikricha, "harbiy xizmatni o'tash bilan bog'liq cheklovlar harbiy huquq normalarida belgilangan holatlar iborat bo'ladi.

Shuningdek harbiy xizmatni o'tash bilan bog'liq taqiqlar harbiy xizmatchilar tomonidan davlat mudofaasi va xavfsizligi sohasidagi vazifalarini samarali va sifatli bajarishi, shuningdek, harbiy xizmatchilar tomonidan korrupsion holatlarni va xizmat mavqeini suiste'mol qilishini oldini olish maqsadida belgilangan huquq normalar yig'indisi hisoblendi. Ushbu huquq normalarining buzilishi harbiy xizmatchilarning huquqiy javobgarligini, shu jumladan harbiy xizmat shartnomasini muddatidan oldin tugatish uchun asos bo'lishi mumkin.

"Harbiy xizmatni o'tash bilan bog'liq cheklovlar" tushunchasi *"harbiy xizmatchilarning huquqlarini cheklash"* tushunchasidan farq qiladi. Huquqlarni cheklash, kengroq tushuncha bo'lib qonun hujjatlarida belgilangan huquqlarni chegaralovchi normalar tizimini anglatib, harbiy xizmatchilarning mudofaa va davlat xavfsizligi sohasidagi vazifalarini lozim darajada bajarishini ta'minlashga qaratilib, ularning buzilishi yoki bajarilmasligi huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Huquqiy cheklovlar tizimiga taqiqlar, huquqiy faktlar asosidagi cheklovlar, majburiyatlar, hamda huquqiy javobgarlik kiradi[5]. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, harbiy xizmatchilarning maqomi harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan ba'zi taqiqlar va cheklovlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi chunki harbiy xizmat davlat xizmatining bir turi hisoblanadi. Harbiy xizmatchilar maqomining yana bir e'tiborli xususiyati uning imperativ normalarga, ya'ni bo'ysunish va xizmat subordinatsiyasi bilan bog'liqligiga ifodalanadi. Boshqacha qilib aytganda, harbiy xizmatchilar maqomining o'ziga xos xususiyatlari ularning harbiy holatlarda mamlakat mudofaasini ta'minlash uchun doimiy jangovar shayligi bilan bog'liq bo'ladi[6].

Harbiy xizmatchilarning umumfuqaroviy huquqlari va erkinliklari, shuningdek ularning burchlari va majburiyatlari Qurolli Kuchlarda yuqori darajada ta'minlanishi bilan bir qatorda ayrim cheklovlar joriy etilgan. Misol uchun, harbiy xizmatchilarning erkin harakatlanish huquqi va yashash joyini tanlash huquqi jangovar shaylikni saqlash va xizmat joylariga o'z vaqtida yetib kelishlarini ta'minlash maqsadida belgilab berilgan. Harbiy xizmatchilar so'z erkinligi, fikr va e'tiqodini ifoda etish, erkin axborot olish va tarqatish huquqidan foydalanish bilan bir qator davlat va harbiy sirlarni oshkor qilmaslik, komandirlar (boshliqlar) buyruqlarini muhokama va tanqid qilmaslik majburiyatlari belgilangan.

Harbiy xizmat sharoitlarini inobatga olgan holda, harbiy xizmatda bo'lgan fuqarolarning boshqa fuqarolik huquqlari va erkinliklari (mehnat huquqi, dam olish huquqi, uy-joy huquqi va

boshqalar) amalga oshiriladi. Harbiy xizmatchilarning ushbu huquq va erkinliklari faqatgina qonunda aniq ko'rsatilgan hollarda va hajmda cheklanadi.

Umumiy fuqarolik huquq va erkinliklari bilan bir qatorda, harbiy xizmatchilar harbiy xizmatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadigan alohida huquqlarga ham ega hisoblanadi. Davlat tomonidan pul, oziq-ovqat, kiyim-kechak ta'minotlari hamda turar joy bilan ta'minlash huquqlari shular jumlasidan. Harbiy xizmatchilarning fuqarolar bilan asosan mamlakatning mudofaa qobiliyatini ta'minlash masalalari bo'yicha huquqiy munosabatlarga kirishadilar. Shu bilan birga, harbiy xizmatchilar jangovar navbatchilikka (xizmatga) jalb etilishi bilan ularga qo'shimcha huquqlar, masalan, qurol qo'llash, kuch ishlatish, fuqarolar bajarishi majburiy bo'lgan talablar berishi kabi huquqlar beriladi[6]. Ya'ni harbiy xizmatchilar bajaradigan vazifalar va amalga oshiradigan davlat xizmatining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Shunday qilib, harbiy xizmatchilarga umumiy, maxsus va xizmat vazifalariga bilan qatorda qo'shimcha ravishda majburiyatlar, taqiqlar va cheklovlar yuklatiladi. Ularni ichki idoraviy deb atash mumkin, chunki ularning ta'siri ma'lum bir harbiy tuzilmaning harbiy xizmatchilariga tegishli bo'lishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, harbiy xizmatchilar maqomini quyidagi ko'rinishlarini tavsiflashimiz mumkin bo'ladi:

- umumfuqarolik maqomi (konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar);
- davlat xizmatchisi maqomi (xususan, harbiy xizmatchilarga tegishli bo'lgan davlat xizmatchilariga nisbatan qo'llaniladigan huquq va majburiyatlar);
- harbiy xizmatchilarning umumiy maqomi (barcha harbiy xizmatchilarga tegishli huquqlar, majburiyatlar, cheklovlar va taqiqlar);
- harbiy xizmatchilarning ichki idoraviy maqomi (bajarilayotgan faoliyatidan kelib chiqib belgilanadigan huquqlar, majburiyatlar, cheklovlar va taqiqlar);
- harbiy xizmatchilarning lavozim maqomi (egallab turgan lavozimiga muvofiq harbiy xizmatchiga yuklatilgan huquq va majburiyatlar);
- harbiy xizmatchilarning maxsus maqomi (muayyan holatlarda va vaqtinchalik beriladigan qo'shimcha huquq va majburiyatlar, masalan, qurol, kuch ishlatish; jangovar vazifani bajarish paytida bajarilishi kerak bo'lgan majburiy talablarni berish).

Yuqorida ta'kidlanganidek, harbiy xizmatchilarning maqomi manfaatlar to'qnashuvini istisno qiladigan qo'shimcha cheklovlar va taqiqlar, ularga va ularning rasmiy xatti-harakatlariga nisbatan maxsus talablar mavjudligi bilan tavsiflanadi. Harbiy xizmatchilarning huquqlarini cheklashning quyidagi tamoyillarni ko'rishimiz mumkin:

- jamiyat va davlat xavfsizligi manfaatlarining ustuvorligi tamoyili
- taqiqlar, cheklovlar va javobgarlikning qonuniyligi tamoyili;
- kompensatsiyalar va imtiyozlarni muvozanatlash tamoyili;
- cheklovlar, taqiqlar va javobgarlikning tizimlashganlik tamoyili;
- taqiqlar, cheklovlar va javobgarlikning ilmiy asoslilik tamoyili.

Jamiyat va davlat xavfsizligi manfaatlarining ustuvorligi tamoyili - inson va fuqaroning huquqlari va erkinliklari faqatgina qonun bilan belgilangan hollarda konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini saqlash, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek mamlakat mudofaasi va davlat xavfsizligini ta'minlash zaruriyatidan kelib chiqib cheklanishi mumkin.

Taqiqlar, cheklovlar va javobgarlikning qonuniyligi tamoyili - harbiy xizmatchilarga qo'yiladigan qo'shimcha taqiqlar, cheklovlar va majburiyatlar davlat darajasida tartibga

solinmasdan, ichki idoraviy darajadagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinishi oqibatida turli qarama-qarshiliklar va huquqiy bo'shliqlarni keltirib chiqaradi. Harbiy xizmatchilarga nisbatan joriy qilingan taqiqlar, cheklovlar va javobgarlik masalalari qonunlar bilan belgilanishi va bunday normalarni o'z ichiga olgan ichki idoraviy buyruqlar Adliya vazirligidan majburiy ro'yxatdan o'tkazilishi lozim[6].

Idora yoki harbiy qism komandirining buyrug'i yoki og'zaki ko'rsatmasi bilan qo'llaniladigan taqiqlar va cheklovlar yuridik kuchga ega emas. Shunga muvofiq ularga rioya qilmaganlik yoki bajarmaganlik uchun harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llaniladigan har qanday javobgarlik, va jazo choralari noqonuniy hisoblanadi.

Kompensatsiyalar va imtiyozlarni muvozanatlash tamoyili - harbiy xizmatchilarga qo'yilgan taqiqlar va cheklovlar aniq muvozanatlangan bo'lishi lozim. Ya'ni cheklovlar, taqiqlar va qo'shimcha majburiyatlar harbiy xizmatchilarga taqdim etiladigan imtiyozlar va kompensatsiyalarga mutanosib bo'lishi lozim.

Masalan, favqulodda holat sharoitida yoki qurolli mojarolar vaqtida o'z vazifalarini doimiy yoki vaqtincha bajarayotgan, shuningdek, sharoiti og'ir bo'lgan hududlarda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarga qo'shimcha majburiyatlar, cheklovlar va taqiqlar yuklanganligini hisobga olgan holda qonunchilikda belgilangan qo'shimcha ijtimoiy to'lovlar, kafolatlar va kompensatsiyalar bilan ta'minlanishi lozim.

Cheklovlar, taqiqlar va javobgarlikning tizimlashganlik tamoyili - harbiy xizmatchining maqomining "cheklovlar – taqiqlar – javobgarlik" elementlari tizimiga mos ravishda ijtimoiy kafolatlar va imtiyozlarni kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Muvofiqlik tamoyili - harbiy xizmatchilarning maqomining barcha elementlari, shuningdek, turli darajadagi (fuqarolik, davlat, umumiy, idoraviy, rasmiy, maxsus) huquqiy maqomlarning o'zaro bog'liqligini tushunish va hisobga olish zaruratidan iborat.

Harbiy xizmatchilarga nisbatan taqiqlar, cheklovlar va qo'shimcha majburiyatlarni tadbiq etishda ularning huquqiy maqomning boshqa elementlari bilan o'zaro munosabatda amalga oshirilishini qanday ta'minlash kerakligini hisobga olish muhimdir. Xususan, ushbu cheklovlar, taqiqlar va majburiyatlar bajarilmagan taqdirda tegishli nazorat va javobgarlik mexanizmini ishlab chiqish kerak.

Masalan, harbiy xizmatdan bo'shatish uchun asoslardan biri komandir (boshliq)ga nisbatan bo'ysunuvchilarda unga nisbatan ishonchni yo'qotishi mumkin. Ya'ni komandir (boshliq) o'ziga bo'ysunuvchi harbiy xizmatchiga nisbatan shaxsiy manfaatlar paydo bo'lganda va bu manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lganda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va (yoki) hal qilish chorasi sifatida harbiy xizmatdan bo'shatish vakolatiga ega ekanligi belgilangan.

Taqiqlar, cheklovlar va javobgarlikning ilmiy asoslilik tamoyili - ushbu tamoyildan kelib chiqib, harbiy xizmatchilarga nisbatan taqiqlar va cheklovlarni joriy etishda quyidagilar taklif etiladi:

- harbiy xizmatchilarning psixologik idrokini hisobga olish, fuqarolarning moddiy-mafkuraviy xususiyatlaridan kelib chiqish.
- jamoatchilik fikrini o'rganish, ularni joriy etishning mumkin bo'lgan oqibatlarini aniqlash uchun sotsiologik (so'rovnoma, suhbatlar) va iqtisodiy tadqiqotlar, so'rovlar, testlarni o'tkazish;
- taqiqlar va cheklovlarni ishlab chiqishda ularni muhokama qilish, tushuntirish, bajarilishini nazorat qilish, zarurat tug'ilganda ularga zarur tuzatishlar kiritish.

➤ xorijiy davlatlar tajribasini inobatga olish (*Harbiylarga ma'lumot sizib chiqishining oldini olish uchun "iPhone" rusumli smartfonlardan foydalanish Janubiy Koreya (shuningdek, Rossiya va Xitoy) kabi davlatlarda taqiqlangan bo'lsa, 2023-yildan Fransiya barcha harbiylashgan idoralar xizmatchilariga xizmat telefonlarida TikTok, Twitter, Instagram kabi ko'ngilochar ilovalardan foydalanishni kiberxavfsizlik maqsadida taqiqlangan*)

Shunday qilib, harbiy xizmatchilar, idoralar, davlat tuzilmalari xodimlarining maqomini hisobga olgan holda, shuni ta'kidlash kerakki, davlat xizmatchilarining faoliyati, ularning maqomi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun bilan belgilanadi[7].

Harbiy xizmatchilar va davlat xizmatchilarining huquqiy holatini qiyosiy tahlil qilishda shunga e'tibor qaratish kerakki, davlat xizmatidan farqli ravishda, harbiy xizmatchilar uchun xizmat intizomiga qo'yiladigan talablar bir muncha qat'iy ko'rinishda bo'ladi. Harbiy xizmatchilarning harbiy intizomga qat'iy amal qilishida namoyon bo'ladi. Harbiy intizom — bu barcha harbiy xizmatchilarning qonun, harbiy nizomlar tomonidan, komandirlar (boshliqlar) buyruqlari bilan belgilangan tartib va qoidalarga qat'iy va aniq rioya etilishidir. Harbiy xizmatchilarning intizomiy javobgarligining o'ziga xosligi shundaki harbiy xizmatchilarning turli toifalariga nisbatan turli ko'rinishdagi jazo chorlari qo'llaniladi.

Qurolli Kuchlar Intizom Nizomiga asosan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan harbiy xizmatchi qo'pol intizom buzgan deb baholanadi va intizomiy javobgarlikka tortiladi. Harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llaniladigan intizomiy jazo turlari ko'p jihatdan boshqa davlat xizmatchilariga nisbatan qo'llaniladigan intizomiy jazolardan farq qiladi. Ya'ni harbiy xizmatchilarning maqomi elementlari sifatida kiritiladigan cheklovlar va taqiqlarni chuqur ilmiy o'rganish zarurligi o'z isbotini topadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, harbiy xizmatchilarning maqomi tuzilmasining quyidagi elementlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) huquqlar;
- 2) majburiyatlar;
- 3) cheklovlar;
- 4) taqiqlar;
- 5) javobgarlik;
- 6) imtiyozlar (qulayliklar);
- 7) kompensatsiya;
- 8) rag'batlantirish.

Muayyan toifadagi harbiy xizmatchilarga umumiy, maxsus va xizmat majburiyatlartidan tashqari qo'shimcha majburiyatlar, taqiqlar va cheklovlar ham yuklatilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бараненков В.В. Юридическая личность военных организаций: Монография. – М.: МПИ ФСБ России, 2008 – С. 18-19.
2. Козлов В.В.// Право в Вооруженных Силах.- 2001.
3. Кудашкин А.В. Военная служба в Российской Федерации: теория и практика правового регулирования: Монография. – М.: Военное право: Электронный журнал, 2003.
4. O'zbekiston Respublikasining 12.12.2002-yil 12-dekabrdagi "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi 436-II-sonli qonuni, "O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi" // www.lex.uz.

5. Козлов, В.В. Ограничения, запреты и обязанности, связанные с прохождением военной службы, установленные федеральным законодательством о противодействии коррупции и о государственной гражданской службе Российской Федерации (о некоторых проблемах правовых ограничений военнослужащих, установленных статьей 27.1 Федерального закона "О статусе военнослужащих") Козлов, В.В.// Право в Вооруженных Силах.- 2001.- № 5
6. O‘zbekiston Respublikasining 20.04.2021-yil 20-apreldagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gu O‘RQ-682-son Qonuni, “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi” // www.lex.uz.
7. O‘zbekiston Respublikasining 08.08.2022 yildagi “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-788-son qonun, “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi” // www.lex.uz.